O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
SIRDARYO VILOYATI
BOSHQARMASI

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko‘chasi, 7-uy, Tel/Faks: 71-203-11-08, E-mail: sirdarya_davekspert@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Bahodirov Saidaxmad Ulug‘bekovich
Sana: 28-12-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

227974 - SONLI

Obyekt nomi: Namangan viloyati, Namangan shahar, Davlatobod tumani, Yuqori G‘irvon MFY, Ququmboy shox ko‘chasi 242-n Uy xududida "NEW-HOME-TRADE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT tomonidan Savdo va ma`ishiy xizmat ko`rsatish shaxobchalarini o`z ichiga olgan ko`p qavatli turar-joy binoinshootlarini qurilishi	
Buyurtmachi:	NEW-HOME-TRADE MCHJ
Bosh loyihachi:	"IMRAN PROJECT DESIGN" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov savdolari asosida aniqlanadi
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	046916

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Namangan viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2024-yil 12-dekabrdagi №163380851-sonli xulosasi.

1.2. Namangan shahar Qurilish bosh boshqarmasining 2024-yil 02-dekabrdagi №1714-1714401365-207910-sonli arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i.

1.3. Buyurtmachi va loyihachi o‘rtasida 2024-yil 14-dekabrda tuzilgan №45-2024-sonli shartnoma.

1.4. Namangan viloyati Arxitektura shaharsozlik kengashining 2024-yil 15-noyabrdagi №45-sonli yig‘ilish bayoni.

1.5. Namangan shahar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limining 2024-yil 27-noyabrdagi №159109539-sonli ruxsatnomasi.

1.6. “GEO LINE PROEKT” MChJ ning 2021-yildagi muhandislik geologiya sharoitlari to‘g‘risidagi xulosasi.

1.7. O‘zbekiston respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi Namangan viloyati filialining 2024-yil 12-dekabrdagi 01-02/07-1805-sonli Davlat ekologik ekspertizasining xulosasi.

1.8. Tegishli tartibda tasdiqlangan 2024-yildagi loyiha topshirig‘i.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

Namangan viloyati, Namangan shahar, Davlatobod tumani, Yuqori G‘irvon MFY, Ququmboy shox ko‘chasi 242-n Uy xududida "NEW-HOME-TRADE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT tomonidan Savdo va ma`ishiy xizmat ko`rsatish shaxobchalarini o`z ichiga olgan ko`p qavatli turar-joy binoinshootlarini qurilishi obyektining loyiha-smeta va loyiha oldi hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Obyekt joylashgan tuman tavsifi.

Hudud va uchastkaning seysmikligi – 8 ball

Tuproqlar: - qumoq tuproq, qalinligi 1,8 m gacha bo'lgan qumloq, tozalangan qalinligi 1,8 dan 4,0 m gacha.

Toshning ochiq qalinligi 4,0-20,0 m gacha

Tuproqlar - 20,0 m gacha

3.2. Obyekt loyiha topshirig‘iga asosan (ikki bosqichli):

Turar-joy ramali konstruksiya sifatida loyiha qilinadi.

Maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchalarini o‘z ichiga olgan ko‘p qavatli turar-joy majmualarini o’z ichiga olgan 7-

qavatli penthausli turar-joy binolari, loyixa 1ta blokdan iborat.

1-blokda xar bir qavatlarda (7 qavatli penthausli)

A.Oddiy qulaylikdagi 3 xonadonlili kvartira

Umumiy – 114.48 m2, turar-joy – 54.38 m2;

B. Oddiy qulaylikdagi 3 xonadonlili kvartira

Umumiy – 106.68 m2, turar-joy – 46.58 m2;

V. Oddiy qulaylikdagi 1 xonadonlili kvartira

Umumiy – 48.45 m2, turar-joy – 16.11 m2;

(1-qavat) Oddiy qulaylikdagi ishchilar dam olish xonalari bor maishiy xizmat ko’rsatish.

Umumiy – 355.29 m2;

Binoning yerto’la qismida texnik qavat etib loyixalanishi lozin. Yerto’la balandligi poldan shiftgacha 3.0m ni tashkil qilishi lozim, 1 qavat poldan shiftgacha 4.0m ni tashkil qilishi lozin, Takroriy qavatlar balandliklari esa poldan shiftgacha 3.0m ni tashkil qilishi lozim.

3.3. Turar-joybinosi 21 ta honadonli, kompleks konstruktsiyadan tashkil topgan kalonnalarga B25, AIII Φ25, Φ22, Φ18

armaturalardan foydalanilsin, Poydevorlar yaxlit quyma B15 markali betondan foydalanilsin, AIII Φ25, Φ22, Φ18 armaturalar ishlatilsin. To`sinlarga B15, B20 markali betondan foydalanilsin, AIII Φ25, Φ22, Φ16 armaturalar ishlatilsin.

QMQ 2.01.03-2019 “Zilzilaviy hududlarda qurilishlar” me’yorining 3.1 jadvali 4 b) punkti hamda 3.5 bo’limi talablari asosida- qo’lda g’isht terishda II darajaga mansub bo’lgan kompleks konstruktsiyali devorlar qabul qilinsin.

Poydevor – yaxlid, temir beton;

Bino ramali konstruktsiyasi – quyma temir beton va gazablok konstruktsiyalar bilan tuzilishi lozim;

Devorlar – Pishgan g`isht va issiqlik saqlovchi material (Bazalt 50mm. 140 km/m3).

Orayopmalar – ko’p bo'shliqli temir beton plitalar;

Tom qoplamasi – 0,51 mm qalinlikdagi yog'och karkasga o'rnatiladigan rangli profnastildan foydalanish lozim.

Ichki to'suvchi devorlar (peregorodki)

– 120 mm qalinlikda pishgan g`isht yoki gipsokarton;

Derazaga uch qavatli oyna o'rnatilgan plastik profildan tayyorlangan derazalar o'rnatiladi.

Ichki eshiklar yog'och materiallardan yoki MDF dan shlanishi lozim.

Bino sokolida keramogranit plitkalardan foydalanish.

3.4. Konstruktiv echimlarga, yuk ko'taruvchi va o'rab turgan tuzilmalarning materiallariga, yong'inga chidamlilik darajasiga va binoning pardozlashiga qo'yiladigan asosiy talablarga asosan ishlab chiqilishi lozim.

3.5. Bajarilmagan boshqa talablar va ish turlari bo‘yicha buyurtmachi va loyihachi javobgar. “Nogironligi bo‘lgan shaxslar” uchun qurilmalar va jixozlarini o‘rnatish, qurilish jarayonida buyurtmachi va quruvchi o‘rtasida aniqlanadi. Barcha talablar bajarilishini ta’minlash va javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan holda buyurtmachi ijobiy xulosani qabul qilishi bilan unga yuklanadi.

3.6. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yechim. (AP)

Yangi qurilsih loyihasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida” PQ-266-son Qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlarining kirish va chiqish, fuqarolarni nogironligi bo‘lgan shaxslarning erkin foydalanishi uchun moslashtirish talablari qisman bajarilgan. Eshiklar ostonasiz qilingan. Pandus va perillalar oldi kirish qismiga o‘rnatilgan. Tashqi yo‘laklarda taktil qoplama qo‘llanilgan. Avtoturargoh loyihada kiritilgan, belgi o‘rnatilmagan. Bajarilmagan boshqa talablar va ish turlari bo‘yicha buyurtmachi va loyihachi javobgar. “Nogironligi bo‘lgan shaxslar” uchun qurilmalar va jixozlarini o‘rnatish, qurilish jarayonida buyurtmachi va quruvchi o‘rtasida aniqlanadi. Barcha talablar bajarilishini ta’minlash va javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan holda buyurtmachi ijobiy xulosani qabul qilishi bilan unga yuklanadi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Energiya samaradorligi va enrgiya tejamkorligi tegishli talablar bo‘yicha bajarilishi lozim.

4.2. VK va NVK bo‘limi

1. Loyihaning qisqacha mazmuni.

Grunt turi - I (birinchi) cho‘kuvchanlik turi;

Seysmiklik 8 ball;

Gruntning me’yoriy muzlash chuqurligi - 0,63 m;

Sovuq suv ta’minoti xo‘jalik-ichimlik suvi bilan ta’minlangan. Kiritishlar soni - uch.

Vodoprovod tarmog‘i boshi berk deb qabul qilingan. Quvurlar ochiq holda pol va devorlar ustiga yotqiziladi. Vodoprovod tarmoqlari po‘lat va polipropilen quvurlardan tayyorlanadi.

Issiq suv ta’minoti har bir xonadon uchun oshxonaga o‘rnatilgan qozon orqali amalga oshiriladi. To‘rlar polipropilen quvurlardan tayyorlanadi.

Truboprovodlarning yotqizilishi sovuq suv truboprovodlariga o‘xshaydi.

Binoda maishiy kanalizatsiya loyihalashtirilgan. Quvurlar bosimsiz plastmassa quvurlardan tayyorlanadi. Kanalizatsiya ochiq pol ustida va yashirin pol ostida quriladi. Binolardan oqava suvlar loyihalashtirilayotgan kanalizatsiya quduqlariga chiqariladi.

4.3. Yong'in signalizatsiyasi.

Qisqacha malumot: Loyihaning ushbu bo'limi dizayn xususiyatlari va QMQ 2.04.20-98, MKM 01- 04 ga muvofiq ishlab chiqilgan. Loyiha xavfsizlik va yong'in signalizatsiya tarmoqlarinio'rnatishni nazarda tutadi. Abonent tarmog'i КПСнг(А) 2х2х0,75 ochiq simli va ПВХ kabel kanallarida olib boriladi va dahliz o't o'chirish stantsiyasida o'rnatilgan Прибор приёмно-контрольный и управления охранна пожарный "РУБЕЖ" rusumli boshqaruv panellariga chiqariladi. Yong'in va o'g'irlik signalizatsiyasining elektr qabul qiluvchilarini elektr ta'minoti 3 - toifaga kiradi va bitta mustaqil quvvat manbalaridan amalgaoshiriladi. Asosiy quvvat 220V, 50Gts o'zgaruvchan tok bilan ta'minlanadi.

4.4. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni:

Ekspertizaga taqdim etilgan ushbu loyihaning "ISh" (OV) bo‘limida Namangan viloyati, Namangan shaxar, Davlatobod tumani, Kukumboy shox ko‘chasi 242-uy manzilida «Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchasini o‘z ichiga olgan ko‘p qavatli turar-joy bino-inshootlari» qurish ishchi loyihasining isitish va shamollatish tizimlari ishlab chiqilgan va quyidagilarni o‘z ichiga olgan:

1. Umumiy ma’lumotlar

Kavatlarning isitish tizimlari rejasi

2. Isitish tizimi aksonometrik chizmalari.

3. Boshkaruv tuguni montaj chizmasi.

Kavatlarning shamollatish tizimlari rejasi

Shamollatish tizimlari aksonometrik chizmalari

Qurilmalar, mahsulotlar va materiallarning spesifikatsiyalari.

Bundan tashqari, shu jumladan quyidagi xujjatlar taqdim yetilgan:

Hisoblangan ma’lumotlar (tashqi havo parametrlari, tashqi to‘siqlarning qarshiligi, ichki havo parametrlari);

Normativ hujjatlar;

Asosiy isitish va shamollatish yechimlari;

Quvurlar, havo kanallari va issiqlik izolyatsiyasi uchun materiallar;

Isitish va shamollatish uchun asosiy ko‘rsatmalar.

Yopiq inshootlarning issiqlik o‘tkazuvchanligiga chidamliligini hisoblash; issiqlik yo‘qotilishini, havo almashinuvi jadvali va isitish va shamollatish uskunalarining xususiyatlarini hisoblash.

«ISh» (OV) kichik bo‘limi uchun loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda zarur muhandislik hisob-kitoblari amalga oshirilgan va quyidagi qurilish muhandislik uskunalari tizimlari uchun texnik va sxematik yechimlar ishlab chiqilgan:

- isitish;
- xavo ta’minoti va shamollatish;

Binoni isitish issik suv bilan isitish moslamalari asosida ishlab chiqilgan.

Bino yetkazib berish va chiqarish shamollatish tizimlarini ta’minlangan.

Kichik bo‘limda loyixa yechimlari tavsiflari, zarur hisoblash natijalari, quyidagi qurilish muhandislik uskunalari tizimlari uchun texnik va sxematik yechimlar mavjud:

- ob’ektning isitish tizimlari;
-xavo ta’minoti va shamollatish;

Isitish bo‘limi uchun loyixa yechimlari

Issiqlik ta’minoti manbai etib -loyiha buyicha markaziy modulli kozonxona nazarda tutilgan.

Suv isitish kozoni 120 kVt isitish tizimlari uchun ishlatiladi.

Loyixada isitish tizimi gorizontal ikki quvurli, nasosli tizim sifatida qabul qilingan.

Isitish tizimi uchun issik suv parametrlari 95-70 °C bo‘lgan suvdir.

Bimetall radiatorlar isitish moslamalari sifatida ishlatiladi.

Pollar va devorlar kesishmasida yotqizilgan quvurlar yonuvchan bo‘lmagan materiallardan yasalgan yenglarda utkaziladi.

Tizimning quvurlari polipropilendan tayyorlangan,

Issitish tizimini tartibga solish uchun issiqlik uzatish kuvurlari va ularning ulanishlarida isitish moslamalarini o‘chirish imkoniyati bor klapanlar yetkazib berish va qaytarish quvurlariga o‘rnatilgan.

Isitish tizimlaridan havoni olib tashlash uchun isitish alyumin radiator moslamalarining yuqori nuktasiga o‘rnatilgan yarim avtomatik havo chikargichlar orqali ta’minlanadi.

Isitish tizimlarining ko‘targichlaridan suv tizimning pastki nuqtalarida joylashgan drenaj klapanlari yordamida chiqariladi.

Barcha magistral quvurlar va ko‘targichlar izolyatsiya qilingan.

Qavatlar, ichki devorlar va bo‘linmalar kesishmasidagi quvurlar yonmaydigan materiallardan yasalgan yenglarga yotqizilgan.

Shamollatish bo‘limi uchun loyixa yechimlari.

Binoda shamollatish mexanik va tabiiy uslub buyicha muljallangan.

Xonalarda havo almashinuvi hisoblash yo‘li bilan aniqlangan va shuningdek, havo ta’minotining sanitariya normasi buyicha xisoblangan.

Shamollatish tizimlari o‘rnatilgan.

Binoning xizmat qavatida shamollatish mexanik uslub orqali qabul qilingan.

Tabiiy va mexanik uslub shamollatish binoda ta’minlanadi, xavo oqimi uyushmagan va derazalarning ochilish orqali amalga oshiriladi.

Havoni chiqarib tashlash uchun qurilish loyixalarida vertikal shamollatish kanallari, ularga o’rnatilgan havo panjaralari orqali mo‘ljallangan.

Ichkari xonalar havosining chiqishi tomning tepasiga chikarish bilin mo’ljallangan.

4.5. Gaz tarmoqlariga ulanishlar texnik shartlarga muvofiq bajarilishi lozim. Ya’ni:

Gaz quvuriga ulanish joyi harakatdagi Shu xududdagi yer osti,0.023-0.15 kgs/sm2 o‘rta bosimli gaz tarmog‘iga, ulanish nuqtasiga bo‘lgan masofa 230 p/m, D=159 mm;

Soatlik gaz iste’moli sarfi:31.36 nm3/soat. Yillik iste’moli sarfi: 122000 nm3/yil

Gaz jihozlar:28 (yigirma sakkiz) dona PG-4 gaz plitasi o‘rnatish belgilansin.

Gaz taqsimlash punkti (GTP) qurish zarurligi O‘rta bosimli GTP o‘rnatish ko‘zda tutilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. "Hududgaz Namangan" GTF tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirishga 2023-yil 14-sentyabrdagi № 034757-sonli texnik shart.

5.2. .“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Namangan hududiy filiali”ning elektr tarmoqlariga ulanish uchun 2023-yil 30-avgustdagi 35-18/1157-sonli texnik shartlar.

5.3“Namangan Suv Ta’minoti” MChJ Do‘stlik bo‘limining 2024-yil 14-dekabrdagi 02/541-sonli texnik sharti.

5.4. Loyiha bo’yicha qabul qilingan yechimlarning javobgarligi buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **11 130 427 000** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

211 930 758 so'mga kamaytirilib, **10 918 496 242** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **9 068 541 348** so'm

Asbob-uskunalar: **680 116 011** so'm

QQS: **1 169 838 883** so'm

6.1. Loyiha hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

Loyihada barcha ko‘rsatmalar tuzatilishi va loyiha texnik topshirig‘i va texnik shartlarga asosan ishlab chiqilishi talab etiladi.

6.2. Obyektning boshlang‘ich umumiy qiymati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2003-yildagi 11-iyundagi 261-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Qurilayotgan (ta’mirlaniyotgan) obyektning boshlang‘ich umumiy qiymatini aniqlash tartibi” bo’yicha va O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan tasdiqlangan SHNK 4.01.16-09 va 2009-yil 30-iyuldagi №83-buyrug‘i asosida obyektning umumiy qiymati aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi 684-son Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi 46-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga muvofiq obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

6.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi yildagi PQ332-son Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, obyektning cheklangan qiymati buyurtmachi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi” DUKning ijobiy xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ushbu qaror 2-ilovasining 1-bob, 4-bandiga asosan “Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta’mirlash bo‘yicha tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini amalga oshirish uchun xarid qilish hujjatlari Markazga texnik topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritiladi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosliligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkaziladi.

6.4. Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugatgandan so‘ng, nazorat o‘lchovi natijalariga ko’ra, haqqoniy bajarilgan ish hajmiga muvofiq belgilanadi.

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 4-bandiga asosan “Qurilishi markazlashtirilgan manbag‘lar hisobiga moliyalashtiriladigan obyektlarning boshlang‘ich qiymati Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy saytiga (stat.uz) joylashtirib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizimlar xizmati uchun o‘rtacha narxlar hamda o‘rtacha ish haqi ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda shakllantiriladi” hamda mazkur qarorning 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan “Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo‘yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir”.

6.6. Taqdim qilingan lokal hulosaga javob hujjatilaring haqqoniyligi, sifati va ishonchliligi uchun buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda Namangan viloyati, Namangan shahar, Davlatobod tumani, Yuqori G‘irvon MFY, Ququmboy shox ko‘chasi 242-n Uy xududida "NEW-HOME-TRADE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT tomonidan Savdo va ma`ishiy xizmat ko`rsatish shaxobchalarini o`z ichiga olgan ko`p qavatli turar-joy binoinshootlarini qurilishi loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko‘rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

7.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2003-yildagi 11-iyundagi 261-sonli qarori va SHNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o'tkazish uchun obyektning qiymati tomonidan belgilanadi.

Bosh ekspert: Otajonov Mansurjon Ma’rufjon O‘g‘li.

Ishtirokchi ekspertlar: Komilov Shoyadbek Qudrat O‘g‘li, Kosherbaev Muratbek Abatovich, Niyazov Alisher Maxmudovich, Turakulov Axmadjon Alisherovich, Shukurov Rustam Sunnatovich, Otajonov Mansurjon Ma’rufjon O‘g‘li